

TEACHING CLASSICAL LITERATURE: A SYNTHESIS OF TRADITION AND ORIGINALITY

Intizor Atabekovna Jumaniyazova

High-Class Teacher of the Creative School Named After Abdulla Qadiri

ABSTRACT

In this article, it is emphasized that such aspects as the teaching of literary science, the past, reading the source step by step in the course of the lesson, listening and paying attention to the written literacy of students are used in the education of madrasahs. . raised In addition, teaching literature in madrasa education, learning complex texts and sources, necessary methods for improvement, showing common methods of modern teaching methods:

Keywords: literature, teaching methods, written literacy, madrasa education, modern teaching methods.

MUMTOZ ADABIYOTNING O'QITILISHI: AN'ANA VA ORIGINALLIK SINTEZI

Jumaniyazova Intizor

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining oliv toifali o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiyot fanini, o'tmish manbalarni o'qitish, dars jarayonida bosqichma-bosqich o'qib tushunish, tinglab tushuntirish va o'quvchilarining yozma savodxonligiga e'tibor qaratish ilk bora madrasalar ta'llimida qo'llanilganligi haqida ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, madrasalar ta'llimidagi adabiyot fanini o'rgatish, murakkab matn va manbalarni o'rganish, tushunish uchun zarur bo'ladigan usullar, zamonaviy o'qitish usullarining mushtarak jihatlari ko'rsatib o'tiladi:

Kalit so'zlar: adabiyot, o'qitish usullari, yozma savodxonlik, madrasalar ta'llimi, zamonaviy o'qitish usullari.

Sharq xalqlari o'tmish madaniyati, tarixiga e'tibor qaratsak, inson kamoloti islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" hamda "Hadisi sharif" mazmun- mohiyati bilan uyg'unlashib ketganligiga guvoh bo'lamiz. Boisi, ularda komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan. "Qur'oni Karimda" dagi ta'llim-tarbiyaga oid ulug' xazina Al Buxoriy hazratlarining hadislarida ham berilgan. Jumladan, (38-hadis) "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz": (136-hadis) "Hech bir ota o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros berolmaydi".¹ Ta'llim-tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib beriladi.

IX- XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Ilm-fanning rivojlanishi o'z navbatida ta'llimga ta'sir qildi. Natijada oddiy maktablardan keyin

¹Qarang: <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/sharq-mutafakkirlarining-ta-lim-va-tarbiya-haqidagi-pedagogik-qarashlari>

madrasalar paydo bo'la boshladi. Bunday ta'lif maskanlari xalqimizga buyuk allomalar Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy, Abu Nasr Farobi, Abu ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalarni yetishtirib chiqardi. G'arb mamlakatlaridan ilg'orlab dastlab Sharqda buyuk asarlar va kashfiyotlar yaratildi. Bunday nodir asarlar hattoki hozirgi paytda Yevropa mamlakatlarida oliy o'quv yurtlarida darsliklarga kiritilib o'rganilayotganligi sir emas. Zero, buyuk shoir G'afur G'ulom o'zining "Sharaf qo'lyozmasi"² she'rida shunday deydi:

Bizda logarifmaning

Mushkul muammolari

Qo'ldagi barmoqlarday

Oson qilinganda hal

Oliy irq da'vogari

Cherchelning bobolari

Hatto sanay olmasdi

O'n barmoqni mukammal

Tarixga nazar solsak, yurtimizda X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo'la boshlaydi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Qo'qon kabi qadimiy shaharlarimizda azal-azaldan madrasalar ilm-ma'rifikat o'chog'i bo'lib kelgan.

Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori Shodmon Hayitov shunday yozadi: "Sharq va G'arb ta'lif tizimi taraqqiyoti tahlil etilsa, bir manzara ko'zga tashlanadi. G'arbdan ta'lif markazlari sifatida universitetlar shakllangan. Sharqda bu vazifani madrasalar bajarib kelgan. "Yurtimizda dastlabki oliy ta'lif beruvchi Forjak, Faqih, Ibrohim Tavg'ochxon madrasalari IX-XII asrlarday oq vujudga kelgandi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, musulmon olamida birinchi madrasa IX asrda Buxoroda barpo etilgan. Unda ilohiyot bilan bir qatorda qonunchilik (fiqh), mantiq, matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), tibbiyat, tarix, jo'g'rofiya, adabiyot, she'riyat (ilmi aruz), arab tili kabi qator dunyoviy fanlar o'qitilgan"³

O'tmishda bek va sultonlar, zodagon va hukmdorlar ilm-ma'rifikatga rahnamolik qilgani ma'lum. Hirot, Qo'qon, Xorazm adabiy muhitida tashkil etilgan mahfil, mushoiralarda adabiyot muhiblari, muxlis va shinavandalari ishtirok etishgan. Temuriy hukmdor sulton Husayn Boyqaro rahbarligi Alisher Navoiyning murabbiy va muqavviyiligi ostida Xuroson muzofotida yusushtirilgan Hirot "Oliy majlis"lari fikrimizning isbotidir.

Temuriy humdorlardan bo'lgan Mirzo Ulug'bek ham nafaqat Samarqandda, balki Buxoro va G'ijduvonda ham madrasa bunyod etib, ularni muntazam qo'llab-quvvatlab turgan. Jumladan, 1419-yilning 28-noyabrida o'zi 1417-yilda qurdirgan Buxorodagi madrasaga tashrif buyurib, tolibi ilmlar va ularning domlalariga sovg'alar in'om etgan, qizg'in suhabatlar qurban. Madrasaga Mirzo Ulug'bek islam dinining bosh shiori bo'lgan "Ilm o'rganish har bir musulmon va muslimaga farzdir" degan so'zlarni yozdirtiradi.⁴

² <https://tavsiyalar.uz/gafur-gulom-eng-sara-sherlar-toplami/>

³ <https://xs.uz/uz/post/islom-olamida-birinchi-madrasa-bukhoroda-barpo-etilganini-bilasizmi>

⁴ <https://xs.uz/uz/post/islom-olamida-birinchi-madrasa-bukhoroda-barpo-etilganini-bilasizmi>

Turon zaminida barpo etilgan madrasalarda fiqh, riyoziyot, handasa va mantiq fanlari bilan bir qatorda adabiyot fanining o'qitilishi va o'rgatilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Adabiyot madrasa mudarrisi ilmi balog'a, ilmi bade' nafosati va mantig'ini talabalar ruhiy olamiga singdirib, insoniy fazilatlar, olижаноб xislatlarni shakllantirish payida bo'lgan. "Madrasalar ta'limalda adabiyot o'qitish usullari" mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan filologiya fanlari nomzodi Mahkamoy Tursunovaning qayd etishicha, mudarrislar orasida eng ko'p maosh ham adabiyot o'qituvchilariga tayinlangan. Hatto, madrasa toliblari 50000 ta so'zni yod olishsagina sanat ya'ni shahodatnomaga ega bo'lishgan⁵. Mazkur holat – an'ana hozirga qadar davom etib kelayotganligini ko'rish mumkin. Yurtimizda ta'lif olish, ilm egallash borasida barcha imkoniyatlar yaratilayotgan bir paytda, o'zbek tili va adabiyotining dunyo miqiyosida nufuzini oshirish, yosh avlodni ona tiliga sadoqat, milliy adabiyotga muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadida 2016-yil 13-mayda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqida o'zbek tili va adabiyoti fanidan yuqori ball olgan yoshlarga imtihon xarajatlarini qoplab berish kerakligini ta'kidlaydi: "Hozirgi vaqtida, chet tillari bo'yicha xalqaro imtihonlarda yuqori ball olgan yoshlarga imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti fani uchun ham mana shunday tartibni joriy etishni taklif qilaman. Shuningdek, o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchilari uchun 50 foizli ustama joriy qilsak,adolatdan bo'ladi".⁶ Yurt farzandi o'laroq o'zbek tili va adabiyotini bilmaslik, nafosat va balog'atini his qilmaslik, o'zlik va madaniyat taraqqiyotiga rahna soladi. M.Tursunova ta'kidlaganidek, madrasalarda 15 — 20, 30 — 40 va 100 — 150 tacha talaba o'qigan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy ishlarda ish olib borar edi. Maktablar, keyinchalik bunyod etilgan va maqomi jihatidan hozirgi oliy o'quv yurtlariga teng bo'lgan madrasalarda ta'lif va tarbiya ishlari shariat qoidalariga muvofiq yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu o'quv maskanlarida islom ta'limoto xususida ma'lumotlar beruvchi ilohiyot fanlari bilan birga dunyoviy fanlarning asoslari ham o'qitilgan. "Aslida, madrasalarda o'qitiladigan fanlar asosan ikki yo'nalishda bo'lgan: 1) ulumi naqliya – naql qilinadigan ismlar (bunga qiroat, tafsir, hadis, tarix, lug'at, nahv va sarf, ilmi maoniy, fiqh va h.k kiritilgan); 2) ulumi aqliya – aql bilan idrok etiladigan ilmlar (falsafa, riyoziyot, tibbiyot, handasa, al-jabr, ilmi nujum kabi fanlar)".⁷

Madrasalar ta'limalda "Qur'on karim"ni o'rganishda talabalar juda katta qiyinchiliklarga duch kelishgan, Shu bois "Qur'on"ni chuqur o'zlashtirish uchun nafaqat arab tili grammatikasi o'rganilgan, balki unga tafsirlar, sharhlar yozilgan, musulmon mamlakatlari adabiyoti va she'riyatining badiiy-poetik sirlarini o'rgatishga bag'ishlangan ilmi balog'atga oid risolalar yaratilgan. "Qur'on", uning tafsiri va sharhi boshlang'ich muktabdan to madrasagacha alohida fan sifatida o'quv dasturiga kiritilgan. Mudarrislarning oldiga qo'yilgan talablar ham juda yuqori bo'lgan. Shu sababli, ularning mehnati darajalangan va mehnat haqi ham shu darajalarga ko'ra to'langan.

Madrasalarda o'qitishning turli usullari, talabalarga ta'lif berishga oid qo'llanmalar, risolalar yaratilgan. Jumladan, An-Nasafiy o'z davrining o'qitish usullari (metodikasi) haqida nodir

⁵ Tursunova M.Madrasalar ta'limalda adabiyot o'qitish usullari.- T.: Mumtoz so'z. 2017.-B-21

⁶ https://t.me/pka_tdi_uz

⁷ Tursunova M.Madrasalar ta'limalda adabiyot o'qitish usullari.- T.: Mumtoz so'z. 2017.-B-11

asarlar yaratdi, ularni o‘zining mudarrislik faoliyati davomida takomillashtirib va amaliy faoliyatida qo‘llaydi. U asarida quyidagi usullarni keltirib o‘tadi: usuli imlo, usuli samo’, ilmi munozara, ilmi muzokara yoki majlis at-tazkir, tadrис, ilmi sharh. Mudarris ayrim mashg‘ulotlarni o‘tkazishda imlo, ya’ni matnni yozdirish usulidan foydalanadi. Mazkur usulni qo‘llashda asosan hadis ilmi, adabiyot bilan bog‘liq mavzulardagi matnlarga keng murojaat qiladi. Mudarrislar rejadagi ilmlarni talabalarga yetkazishda yuksak talab va mas’uliyatni his qilib o‘qitishning turli usullarini ishlab chiqqanlar”.

M.Tursunova tomonidan madrasalarda ta’limi adabiyot darslarida murakkab matnlarni o‘rganish uchun qo‘llangan asosiy usullar ko‘rsatib o‘tilgan:⁸

Nº	Usullarning nomi	Izohlari	Usullarga bog‘liq bo‘linmalar
1	Ilmi sharh (tadrис deb ham nomlangan)	Ochish, bayon qilish, oshkor qilish, cheksiz ma’noga egadir	Tafsir, ta’vil, ya’ni mavhum so‘z va iboralarni sharhlash
2	Ilmi tahlil	Matn mazmunini tahlil etish	
3	Usuli hijoya tahajji	So‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib o‘qish va vaznini aniqlash	Usuli savtiya
4	Ilmi munozara, ilmi xi洛fiyot deb ham yuritilgan	Baxs, muhokama, munozara o‘tkazish usuli	Savol-javob shaklida suhbat usuli
5	Ilmi qiroat	Ohang va so‘z talaffuzi asosida matnni o‘qish	
6	Ilmi fasohat yoki fasoha disor	Chiroyli, o‘rinli qoidaga muvofiq og‘zaki nutq	Notiq, suxandon, zevvari, oyini
7	Ilmi bayon	So‘zdagi nozik ma’nolarni bayon qilish	Ritorika
8	Ilmi g‘ariba g‘ayb, garib	Kam so‘z bilan katta, keng ma’nolarni aks ettirish	Al-ibora, sharh, zurafo, urafo, dabir
9	Ilmi maoniy	Narsa yoki hodisaning tub mohiyatini ochib berish	
10	Ilmi insho	Yozma ish uslubi, maktub, yozuv savodxonligi	
11	Ilmi muammo	Badiiy san’at turi bo‘lib, she’riyatdagi masalalar va ramzlarni yechish usuli	
12	Ilmi mantiq	So‘z zamiridagi mazmun. Logika	
13	Ilmi muhozirot	Lutfgo‘ylik, hozirjavoblik, zukkolik	
14	Ilmi kalom	Naqliy masalalarni aqliy dalillash, isbot qilish	
15	Ilmi imlo	Matnni yozdirish usuli	

Yuqoridagi dalillardan ayon bo‘ladiki, madrasalar ta’limida adabiyot ilmini o‘rganish masalasi muammo bo‘lib kelgan. Ya’ni nimani o‘qitish, o‘rgatish lozim, qanday yo‘l, usulni qo‘llash kerak? Bu muammoga javob topish esa talabalarni adabiyotga oid ma’lumotlardan xabardor qiluvchi mudarris zimmasiga yuklatilgan. O‘z navbatida, mudarris matndagi murakkab manbalarni

⁸ Tursunova M.Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish usullari.- T.: Mumtoz so‘z. 2017.-B-15

o'rgatish usullariga murojaat qilgan va ularni amalda qo'llagan. Demak, adabiyot fanini, o'tmish manbalarni o'qitish, dars jarayonida bosqichma-bosqich o'qib tushunish, tinglab tushuntirish va o'quvchilarining yozma savodxonligiga e'tibor qaratish ilk bora madrasalar ta'limaldi qo'llanilgan. Ota-bobolarimizning adabiyot o'qitishdagi bunday usullari bugungi kunda g'arb mamlakatlarida tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumot tizimi: o'rganish, o'qitish, baholash bo'yicha qo'llaniladigan chet tilini bilish darajalari tizimining aynan o'zidir. Ma'lumki, IELTS(Xalqaro ingliz tili test tizimi) imtihonidan o'tish bosqichlari to'rt qismdan iborat:

Listening – tinglash;

Reading – o'qish;

Writing – yozma ish;

Speaking – so'zlashuv nutqi.

Madrasalar ta'limaldi adabiyot fanini o'rgatish, murakkab matn va manbalarni o'rganish, tushunish uchun zarur bo'ladigan usullar zamonaviy o'qitish usullarining mushtarak jihatlari ko'rsatib o'tiladi:

Ilmi qiroat (ohang va so'z talaffuzi asosida matnni o'qish) o'tmishda qo'llanilgan bu usul ingliz tilidagi listening (tinglash) bosqichining ayrim jihatlarini o'zida aks ettira olgan. Mudarrislar qiroat bilan matnni o'qishda ohang va so'z talaffuziga jiddiy e'tibor qaratishgan. Toki tinglovchi toliblar qiroatni eshitib, matn mohiyati haqida atroflicha mulohaza hosil qilishi lozim bo'lgan. Shu bois qiroat davomida diqqatni jamlash, ovoz tovlanishiga e'tibor berish zarur bo'lgan. Talabalar o'qilgan matnni tinglab, mavzuga doir umumiy xulosalarini ifoda etishgan. Ingliz tilidagi listening (tinglash) sinov bosqichlari ichida eng osoni sanaladi va bu eng sodda tayyorgarlik jarayonidir. IELTS imtihoniga topshiruvchi nomzodlar avval matn bilan tanishadi. Ushbu imtihon bosqichida beriladigan savollarni qisqa qilib o'qib chiqish va ularga mos javoblarni qidirish kerak bo'ladi. Bu bosqichda o'qilgan matnga e'tibor qaratish juda muhim, aks holda fikr tushunarsiz bo'lishi ehtimolga yaqin.

2. Ilmi sharh va ilmi tahlil usullari. Bu usullar xalqaro tizimdag'i reading (O'qish) bosqichi bilan uyg'un. Aniqki, ilmi sharh usuli musulmon olamida murakkab diniy, adabiy va ilmiy irfoniy asarlarni sharhlab o'rganishga xizmat qilgan. Ya'ni arab bo'l'magan (ajam) xalqlarining Qur'oni karim oyatlari, suralarini o'rganishi uchun ilmi sharh usulidan foydalanish zarurati oshib borgan. Sharqda ilmi sharh, ilmi badi', ilmi fasohat, ilmi g'aribadan xabardor bo'lgan kishilarni tafsirchi, mufassirlar, ta'vilchilar, shorihlar deb ataganlar⁹.

Mudarrislar ilmi sharh va ilmi tahlil usuliga murojaat qilish orqali matndagi murakkab so'zlarning ma'no-mantig'i va mohiyatini to'g'ri tushuntish, anglatish yo'lidan borganlar.

Ingliz tilidagi reading o'qish bosqichida ham nafaqat oddiy matnlarni, balki mashhur ilmiy uslubdagi jiddiy nashrlarni ham o'qishni o'rganish uchun testdan o'tish muhimdir. Tayyorgarlik lug'at yordamida matnni qayta o'qishni o'z ichiga oladi. Nafaqat oddiy matnlarni, balki mashhur ilmiy uslubdagi jiddiy nashrlarni ham o'qishni o'rganish uchun testdan o'tish muhimdir. Tayyorgarlik lug'at yordamida matnni qayta o'qishni o'z ichiga oladi.

Wrting (yozma ish) Ushbu bosqichda ma'lum bir mavzu yuzasidan, ma'lum miqdordagi so'zlar bilan insho yozish kerak.

⁹ Tursunova M.Madrasalar ta'limaldi adabiyot o'qitish usullari.- T.: Mumtoz so'z. 2017.-B-31

Ilmi imlo (matnni yozdirish usuli), ilmi insho (yozma ish uslubi, maktub, yozuv savodxonligi). Mudarrislar adabiyot mashg'ulotlarida imlo, ya'ni matnni yozdirish usulidan keng foydalanishgan. Mazkur usulni qo'llashda ,asosan, hadis ilmi, adabiyot bilan bog'liq mavzularidagi matnlarga keng murojaat qilingan. Boisi, madrasa toliblarining yozma savodxonligini oshirish va o'rganilayotgan mavzuni xotirada chuqur saqlab qolishga intilish edi. Ilmi imlo usuli ilmi insho usulining taraqqiy etishiga yordam bergan. Talabalar olingan bilimlar natijasida yozma savodxonligini oshirib, maktub, dastxat, nomalar bitishgan. Maktublarning mag'zi zalvorli va asosli bo'lishi shart bo'lgan.

Ingliz tilidagi wriding (yozma ish) bosqichida ham o'quvchilar mavzu yuzasidan, ma'lum miqdordagi so'zlar yordamida insho yozadilar. Inshoda obrazlilik, aforistiklik, jonli tilga yaqinlik ustuvor sanaladi. O'quvchi har bir so'zni to'g'ri tanlashi, ular mantiqqa va insho mohiyatini teran ochishga xizmat qilishi lozim.

4. Ilmi fasohat yoki fasoha disor (chiroyli, o'rinni qoidaga muvofiq og'zaki nutq), Ilmi bayon (so'zdagi nozik ma'nolarni bayon qilish), Ilmi g'ariba g'ayb, g'arib (kam so'z bilan katta, keng ma'nolarni aks ettirish). Bu usullar chiroyli va yoqimli so'zlash qobiliyatini namoyon qilish, nutqning aniq va ravonligiga e'tibor qaratish, so'zning lisoniy xususiyatini olib bera olish, diniy va dunyoviy bilimlarini og'zaki ifoda etishga xizmat qilgan. Ingliz tilidagi speaking (so'zlashuv nutqi) bosqichida mantiqqa boy so'zlardan va aqlii nutqlardan foydalanish muhimdir. O'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini falsafiy mushohadalari bilan uyg'unlashtirib, og'zaki nutqining ravon va sofligini ko'rsata olishi zarur.

Demak, azaldan adabiyot o'qitish bilan bog'liq mashg'ulotlarda talabalarining og'zaki nutq madaniyati va yozish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu sohaga bo'lgan e'tibor madrasalar ta'limida ham alohida inobatga olingan va ilmi fasohat yoki balog'at fani sifatida o'rganilgan. O'tmish ajdodlarimizning umrboqiy tajribalariga amal qilib, bugungi kunda umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlarida o'tiladigan til va adabiyot mashg'ulotlarida talabalar nutqiga ko'proq e'tibor berish, ularning o'z dunyoqarashini og'zaki va yozma bayon eta olish qobiliyatini shakllantirish, badiiy asar mutolaasiga yo'naltirish dolzarblik kasb etmoqda.

REFERENCES

- 1.Qarang:<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/sharq-mutafakkirlarining-ta-lim-va-tarbiya-haqidagi-pedagogik-qarashlari>
- 2.<https://tavsiyalar.uz/gafur-gulom-eng-sara-sherlar-toplami/>
- 3.<https://xs.uz/uz/post/islom-olamida-birinchi-madrasa-bukhoroda-barpo-etilganini-bilasizmi>
- 4.<https://xs.uz/uz/post/islom-olamida-birinchi-madrasa-bukhoroda-barpo-etilganini-bilasizmi>
- 5.Tursunova M.Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari.- T.: Mumtoz so'z. 2017.
6. https://t.me/pka_tdi_uz